



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 04 | pp. 61-64 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

MINTAQADA ISHBILARMONLIK MUHITINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI



Babajanov Javohir Fayzulla o'g'li,

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

"Biznes va boshqaruv" kafedrasi dotsenti
vazifasini bajaruvchi, PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada ishbilarmonlik muhitini zaruriyati, iqtisodiy mazmuni, mavju imkoniyatlari va uni mintaqaga sharoitida rivojlanishiga yo'naliishlari yoritilgan.

Аннотация. В статье рассматриваются необходимость, экономическое содержание, имеющиеся возможности и направления его развития в региональном контексте.

Abstract. This article discusses the necessity, economic content, existing opportunities and directions of its development in the regional context of the business environment.

Kalit so'zlar. Mintaqqa, ishbilarmonlik, muhit, ishbilarmonlik muhiti, yo'naliish, tadqiqot.

Ключевые слова. Регион, бизнес, окружающая среда, бизнес-среда, направление, исследование.

Key words. Region, business, environment, business environment, direction, research.

Ishbilarmonlik muhiti xo'jalik yurituvchi sub'ektlar (kompaniyalar, korxonalar, tashkilotlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar) faoliyat yuritadigan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va huquqiy sharoitlar majmuuni aks ettiradi. U biznesning rivojlanishiga ta'sir etuvchi barcha ichki va tashqi omillarni o'z ichiga oladi. Raqamli iqtisodiyotni rivojlanish, tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash hamda qulay ishbilarmonlik muhitini rivojlanish orqali aholi bandligi va daromadlarini oshirishga qaratilgan bir qator ishlar izchil olib borilmoqda [1]. Bu esa ishbilarmonlikka oid tadqiqotlarni olib borishni taqozo qiladi. Iqtisodiy muhit davlatning pul-kredit va soliq-budget siyosati, iqtisodiy tanazzul va tarkibiy o'zgarishlar orqali biznes faoliyatiga ta'sir qiladi [2]. Iqtisodiy muhit investitsiya fondlariga talabni yuzaga keltiradi. Iqtisodiy muhitning tarkibida ishbilarmonlik muhiti alohida o'rinn tutadi. Ishbilarmonlik (biznes) muhiti barcha kompaniyalar faoliyatiga ta'sir qiluvchi murakkab, dinamik va oldindan aytib bo'lmaydigan omillar to'plamidir [3]. Boshqa ba'zi tadqiqotlarda tadbirkorlikni rivojlanish va qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, biznesni yuritish bo'yicha xorijiy mamlakatlar reytingining qiyosiy tahlili, shuningdek tadbirkorlikni solilar orqali rivojlanish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar mazmuni tadqiq qilingan [4].

Mintaqada ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish dolzarb ahamiyatga ega. Ya'ni, Xorazm viloyatida iqtisodiy jarayonlarni yanada jadallashtirish borasida ishbilarmonlik muhitini yaxshilash muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan, ushbu omil mintaqada investitsion iqlimning ijobiy tomonga o'zgarishi, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiyot tarmoqlariga sarmoyalarni jalg etishga yetarli shart-sharoit yaratib beradi. Viloyatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash moliyaviy mablag'lar va xom ashyo resurslari bilan ta'minlaganlik darajasi, boshqaruva tizimi sifati, kadrlar salohiyati, mehnat bozori shakllanganligi va undagi muvozanat kabi omillar bilan uzviy bog'liq. Shu o'rinda mintaqada bozor, transport, ijtimoiy va kommunikatsiyaviy infratizilmaning riovjlanganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Viloyatda ishbilarmonlik yaxshilashda tadbirkorlik sub'ektlarining xom ashyo resurslariga bo'lgan ehtiyojini qondirish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, viloyat o'zining xom ashyo bazasiga yetaricha ega emas. Ushbu muammo sanoatni rivojlantirishda o'ta dolzarb masala bo'lib hisoblanadi. Ushbu mavjud muammolarni bartaraf etish uchun hududlarda tadbirkorlarni loyiha sherklikka jalg qilishdir. Shu asnoda qo'shni viloyat tadbirkorlari bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan mintaqalararo loyihalarni ishga tushirish maqsadga muvofiq. Bunday loyihalarda xom ashynoni qazib olish va yetkazib berish qushni mintaqa tadbirkorlari zimmasiga yuklatilsa, uni qayta ishlash va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish mahalliy tadbirkorlar tomonidan amalga oshiriladi.

Mahalliy tashabbusga asoslangan loyihalarni amalga oshirish ayni paytda moliyaviy mablag'lar ta'minotiga bog'liq. Bu borada moliya sektori infrastrukturasini rivojlantirishdan tashqari moliyaviy resurslarni olish imkoniyatini kengaytirish lozim. Mahalliy tashabbuskorlikka asoslangan loyihalarni amalga oshirishda viloyat investitsiyaviy jozibadorligini oshirish muhim vazifa hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda ishlarni uzlusiz olib borish moliyaviy mablag'lar va yangi texnologiyalarni jalg qilish uchun salohiyatli investorlarga viloyatdagi mavjud resurslar, ishlab chiqarish maydonlari va ishlab chiqarish ob'ektlariga investitsiyalarni kiritish uchun holati to'g'risidagi ma'lumotlarni berishni talab etiladi. Shu bois, tadbirkorlik faoliyatini olib borishga yengillik beradigan shart-sharoitlar yaratish mahalliy tashabbuskorlikni oshirib borishning muhim omil bo'lib qolmoqda.

Hududlarda ishbilarmonlik muhitini doimiy tahlil qilib borishni yo'lga qo'yishda bevosita tizimli dasturiy chora-tadbirlarni belgilash biznes uchun qulay shart-sharoit yaryatish va sarmoyadorlarni jalg etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda sarmoyadorlarni mintaqaning investitsion salohiyati bilan tanishtirish va bu borada turli ma'lumot manbaalaridan foydalanish iqtisodiy samara beradi.

Darhaqiqat, mintaqada ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish yo'nalishlari ko'p jihatga ega bo'lib, ular hududning o'ziga xos xususiyatlari, mavjud resurslari va iqtisodiy rivojlanish darajasiga qarab farqlanadi. Shunga asosan, uning asosiy yo'nalishlari turli qismlarga ajratiladi (1-jadval):

1-jadval

Mintaqada ishbilarmonlik muhitini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari

Nº	Asosiy yo'nalishlari	Yo'nalishlarning o'ziga xos xususiyatlari
----	----------------------	---

1	Qonunchilik va tartibga solish bazasini takomillashtirish	<ul style="list-style-type: none"> - soddalashtirilgan ro'yxatdan o'tkazish: Biznesni ro'yxatdan o'tkazish, litsenziya va ruxsatnomalar olish jarayonlarini soddalashtirish va tezlashtirish. - shaffof va barqaror qoidalarni joriy qilish: Ishbilarmonlik faoliyatini tartibga soluvchi qoidalarning shaffof, tushunarli va barqaror bo'lishini ta'minlash
2	Moliyaviy qo'llab-quvvatlash va kreditlash imkoniyatlarini kengaytirish	<ul style="list-style-type: none"> - imtiyozli kreditlar va grantlar ajratish: Kichik va o'rta biznes uchun imtiyozli kreditlar, grantlar va subsidiyalar ajratish. - mikromoliyalash institutlarini rivojlantirish: Aholi qatlamlari, qishloq joylardagi tadbirkorlar uchun mikromoliyalash xizmatlarini rivojlantirish. - vechur kapitali va biznes-angellarni joriy qilish: Vechur kapitali fondlari va biznes-angellar tarmog'ini yaratish va rivojlantirish
3	Infratuzilmani rivojlantirish	<ul style="list-style-type: none"> - transport infratuzilmasini rivojlantirish: Yo'llar, temir yo'llar, aeroportlar va boshqa transport infratuzilmalarini rivojlantirish. - energetika infratuzilmasini rivojlantirish: Elektr ta'minoti, gaz ta'minoti va boshqa energetika infratuzilmalarini rivojlantirish. - aloqa infratuzilmasini rivojlantirish: Yuqori tezlikdagi internet va telekommunikatsiya xizmatlarini keng joriy etish
4	Kadrlar tayyorlash va malaka oshirish	<ul style="list-style-type: none"> - biznes ta'limini tashkil qilish: Tadbirkorlikka o'qitish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish. - malaka oshirish kurslarini ochish: Ishchilar malakasini oshirish uchun kurslar tashkil etish. - kasbiy ta'limni amalga oshirish: Kasb-hunar kollejlari va texnikumlarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va o'quv dasturlarini zamonaviy talablarga moslashtirish
5	Innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash	<ul style="list-style-type: none"> - texnoparklar va biznes-inkubatorlarni takshil etish: Texnoparklar va biznes-inkubatorlar yaratish va rivojlantirish. - ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish: Ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni moliyalashtirish. - intellektual mulkni himoya qilish: Intellektual mulk huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish
6	Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash	<ul style="list-style-type: none"> - davlat xaridlarida ustuvorlik berish: Davlat xaridlarida ishlab chiqaruvchilarga ustuvorlik berish. - eksportni qo'llab-quvvatlash: Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini oshirish uchun

		yordam ko'rsatish. - import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish: Import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish orqali mahalliy ishlab chiqarishni rivojlanadirish
7	Hududning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish	- ixtisoslashtirilgan rivojlanish strategiyalarini shakllantirish: Har bir mintaqqa uchun o'ziga xos rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish. - mahalliy tadbirkorlarni jalb qilish: Mahalliy tadbirkorlarning fikrlarini inobatga olish va ularni rivojlanish jarayonlariga jalb qilish

Bundan tashqari, ekologik toza texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash, turizmni rivojlanadirish, ijtimoiy tadbirkorlikni rag'batlantirish va boshqa yo'nalishlar ham mintaqada ishbilarmonlik muhitini rivojlanirishga xizmat qiladi. Ushbu yo'nalishlar o'zaro bog'liq va ularni kompleks tarzda amalga oshirishgina kutilgan natijalarga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va mahalliy tashabbuskorlikka keng yo'l ochish borasida raqobat muhitini mintaqada shakllantirish katta ahamiyat kasb etadi. Shularga asosan, mintaqada ishbilarmonlik muhitini rivojlanirish uchun quyidagi yo'nalishlardagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim, deb hisoblaymiz:

- raqobat muxitini rivojlanirishni boshqarish va muvofiqlashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;
- tovarlar va xizmatlar bozorlariga kirishdagi mavjud to'siq va muammolarni aniqlash va ularni bartaraft etish;
- mintaqada raqobatbardosh ishlab chiqarish turlarini aniqlash va keng rag'batlantirish;
- taqqoslama ustunlikka ega bo'lgan tarmoqlarni aniqlash va ushbu ustunliklardan samarali foydalanish.

Foydalanilgan adabiyyotlar ro'yxati:

1. Uchkunov R., Shodihev E. (2023). Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida qulay ishbilarmonlik muhitini rivojlanirish masalalari. // Global dunyoda fan va ta'limning innovatsion rivojlanishining hozirgi tendensiyalari, 1(1). – 301 b.
2. Чарыева О. Бизнес среда. // Научный журнал «Ceteris paribus», №12, 2022. - с. 139.
3. Гукова Д.М. Бизнес-среда: понятие и элементы. // Электронный сборник трудов молодых специалистов, Выпуск 16 (86), 2017. - с. 44. elib.psu.by/bitstream/123456789/35052/1/42-44.pdf
4. Урмонов Ж.Ж., Дусияров Ш.Х. Ўзбекистонда тадбиркорликни ривожлантириш ва қулай ишбilarmonlik muhitinini яратиш масалалари. // Ученый XXI века, 2021, №10 (81). - 50 б.

